



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



VARIATIVLIK TURLARI

Zuxriddinova Aziza Ilxomjon qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedgogika instituti

4-bosqich talabasi

zuxriddinovaaziza@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikda muhim nazariy masalalardan biri bo'lgan lingvistik variativlik tushunchasi va uning asosiy turlari yoritiladi. Variativlikning interspiker va intraspiker ko'rinishlari, lingvistik va sotsiolingvistik variativlik farqlari, dialektal variativlik hamda lingvistik o'zgaruvchi tushunchasi ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Shuningdek, til birliklarining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalarda o'zgaruvchanligi tahlil qilinadi. Maqola tilning ijtimoiy tabiati va uning dinamik rivojlanishini tushunishda variativlikning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *lingvistik variativlik, sotsiolingvistika, interspiker variativlik, intraspiker variativlik, dialekt, lingvistik o'zgaruvchi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается одно из ключевых понятий современного языкознания — лингвистическая вариативность и ее основные виды. Анализируются интерспикерная и интроспикерная вариативность, различия между лингвистической и социолингвистической вариативностью, диалектная вариативность, а также понятие лингвистической переменной. Особое внимание уделяется проявлению вариативности на фонетическом, лексическом, морфологическом и синтаксическом уровнях языка. Статья подчеркивает значение вариативности в изучении социальной природы языка и его развития.*

Ключевые слова: *лингвистическая вариативность, социолингвистика, диалект, языковая переменная, речевая вариация.*

Abstract: *This article discusses linguistic variation as one of the central issues in modern linguistics and examines its main types. The study explores interspeaker and intraspeaker variation, distinguishes between linguistic and sociolinguistic variation, and analyzes dialectal variation and the concept of linguistic variables. The article also considers how variation manifests itself at phonetic, lexical, morphological, and syntactic levels. The research highlights the importance of linguistic variation for understanding the social nature of language and its dynamic development.*

Keywords: *linguistic variation, sociolinguistics, dialect, linguistic variable, language use.*

KIRISH.

Til doimiy harakat va o'zgarish jarayonida bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Tilshunoslikda tilning aynan shu dinamik xususiyatini izohlashda variativlik tushunchasi muhim o'rin tutadi. Tabiiy nutq jarayonida til birliklari bir xil shaklda emas, balki turli



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



variantlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli tilni real nutqdan ajratgan holda o'rganish to'liq va mukammal natija bermaydi. Variativlik tilning tirikligini, uning jamiyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib beruvchi muhim belgidir.

ASOSIY QISM

Lingvistik variativlik tushunchasi. Lingvistik variativlik — bu bir til doirasida mavjud bo'lgan bir xil ma'no yoki vazifani bajaruvchi turli til birliklarining qo'llanishidir. Bitta nutq egasi turli vaziyatlarda turli shakllardan foydalanishi yoki turli nutq egalari bir xil mazmuni ifodalashda turlicha vositalarni tanlashi variativlikning asosiy ko'rinishidir. Tilning barcha sathlari — fonetika, morfologiya, leksika, sintaksis va semantika variativlikka moyildir.

Interspiker va intraspiker variativlik. Variativlik interspiker va intraspiker turlarga bo'linadi. Interspiker variativlik turli nutq egalari o'rtasidagi farqlarni ifodalaydi. Bu farqlar hududiy, ijtimoiy, yoshga oid yoki kasbiy omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Intraspiker variativlik esa bitta nutq egasining turli kommunikativ vaziyatlarda nutqini o'zgartirib borishini anglatadi. Masalan, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda bir shaxs turli til vositalaridan foydalanadi.

Lingvistik va sotsiolingvistik variativlik. Lingvistik variativlikda til birliklarining almashinishi lingvistik kontekst bilan qat'iy cheklanadi. otsiolingvistik variativlikda esa bir xil lingvistik sharoitda bir nechta variantlar mavjud bo'lib, ularning tanlanishi ehtimollik asosida yuz beradi. Bu jarayonga mavzuning rasmiylik darajasi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy mavqe, jins, yosh va ta'lim darajasi kabi ekstralingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi.

Dialektal variativlik. Dialektal variativlik tilshunoslikda keng o'rganiladigan hodisalardan biridir. Dialektlar faqat talaffuz bilan cheklanib qolmay, grammatika va lug'at tarkibidagi farqlarni ham o'z ichiga oladi. Dialektal farqlanish darajasi uzluksiz bo'lib, ayrim dialektlar keskin farqlansa, boshqalari bir-biriga juda yaqin bo'lishi mumkin. Hududiy dialektlar bilan bir qatorda yosh, kasb, ijtimoiy vaziyat va madaniy muhitga xos dialektlar ham mavjud.

Lingvistik o'zgaruvchi tushunchasi. Lingvistik variativlikni o'rganishda lingvistik o'zgaruvchi tushunchasi muhim ahamiyatga ega. O'zgaruvchi — bu bir til jamoasida bir vazifani bajaruvchi ikki yoki undan ortiq raqobatdosh shakllarning mavjudligidir. Nutq egalari ushbu variantlardan foydalanish chastotasi bilan bir-biridan farqlanadi. Aynan variativlik til o'zgarishining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Lisoniy variativlik Agarda biz muloqot jarayonida bir til vositasining tasarruvidan boshqa til vositasining tasarrufiga o'ta olsak, masalan, adresatning almashinishida o'sha mavzuni muhokama qilishda davom etsak, demak, bizning ixtiyorimizda ayni mavzu haqida turlicha gapirishga iinkon beradigan vositalar majmuyi bo'ladi. Bu tilning favqulodda muhim xususiyati bo'lib, u so'zlovchining muayyan tilda nafaqat o'z fikrlarini erkin ifodalash, balki uni turli usullar orqali berish imkoniyati bilan ham ta'minlaydi. Til egasining ayni bir ma'noni turlicha ifodalay olishi, uning qayta ifodalash qobiliyati deyiladi. Mazkur qobiliyat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



aytilgandan ma'noni chiqarib olish qobiliyati va to'g'ri iboralarni noto'g'ri iboralardan farqlash mahorati bilan birga, "til bilish" deb nomlanadigan murakkab psixik malaka asosida yotadi. Variativlik nutqiy kommunikatsiyaning barcha darajalarida turli til vositalarini bilishdan tortib, to so'zlashuvchining bir tilga tegishli turli fonetik va urg'u variantlariga yo'l qo'yilishini tushunib yetishigacha bo'lgan darajalarda namoyon bo'ladi. Masalan, Toshkent shahrida piyoda so'zini ikki xil talaffuz qilish kuzatiladi: "pila" va "pela". Bu fonetik variativlikka misol bo'ladi. Yoki Farg'onada narvon o'rniga shoti, Xorazmda sabzi o'rniga gashir so'zlarining qo'ldan berilishi leksik variativlikka misol bo'ladi. Bir xil ma'noga ega bo'lgan lisoniy belgilarning shaklidagi, tashqi ko'rinishidagi nomutanosiblikka, har xillikka variativlik deyiladi. Lisoniy variativlik sotsiolingvistikaning an'anaviy tarzda ko'p o'rganiladigan muammolardan biri. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan variativlik hodisasi turli til variantlarining til egalari tomonidan ijtimoiy va nutqiy muloqot sharoitlaridagi farqlarga bog'liq holda qo'llanilishi sifatida tadqiq qilinadi.

Ijtimoiy variativlik. Variativlikni nemis tilshunoslari individual nutqiy aktlar emas, balki so'zlashuvchilarning muayyan guruhiga xos bo'lgan, ijtimoiy o'zaro bog'langan til qo'llanilishining shakllari va usullari deb izohlashadi²¹. K. Naringzning ta'kidlashicha, til variantlari mavjudligining manbalari va sabablari haqidagi masala, albatta, til va jamiyatning o'zaro munosabatlarini aniqlashga olib keladi. Har qanday til jamoatida ijtimoiy xususiyatlar bilan bir qatorda til xususiyatlari jihatidan ham bir-biridan farqlanadigan turli guruhlar mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, turli kommunikativ vaziyatlarda kommunikativ akt qatnashchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lgan turfa til variantlari ham qo'llaniladi. E'tirof etish joizki, barcha til jamoatlari va tillar uchun universal bo'lgan vaziyatlar va shakllarning to'plami mavjud emas. Tilning ichki differentsiatsiyasi jamiyat ijtimoiy strukturasi o'qibati va ifodasi hisoblanadi. Til va nutqning ijtimoiy variativligi ikki: stratifikasion va vaziyat o'zgarishlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Stratifikasion (lot. stratum-'qatlam' + facere-'qilmoq') variativlik to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy strukturasi bilan bog'liq bo'ladi²⁴. Amerikalik sotsiolingvist U. Labovning "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi" nomli asarida ijtimoiy variativlikning ikki tomonlama tabiati hamda stratifikasion va vaziyatli variativlik o'rtasidagi o'zaro aloqa atroficha yoritib berilgan. Labov variativlik ikki xil turining "doimiy modeli"ni aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Bir tomondan, ayrim nutqiy ko'rsatkichlar va ijtimoiy struktura (ayni nutqiy kontekstda quyi ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan informantlar yuqori ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan informantlarga nisbatan noadabiy shakllardan keng foydalagan) o'rtasidagi totg'ridan-to'g'ri bog'liqlik belgilangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, barcha informantlarda rasmiy holatlarda adabiy shakllarni qo'llash ko'rsatkichini ortgarii qayd qilingan²⁵. Demak, stratifikasion va vaziyatli variativlik o'rtasida cham'bo'lar o'zaro aloqa mavjud. Ijtimoiy variativlik hodisasini Buyuk Britaniya misolida yaqqol ko'rish mumkin. Buyuk Britaniyada Estuary English (EE) (Londondagi past ijtimoiy qatlam vakillarining so'zlashuv tili), Kokni (Cockney) (lumoti kam bo'lganlar tomonidan norasmiy doiralarda qo'llanuvchi London dialektining varianti)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



va Received Pronunciation (RP) (Londondagi oliy ijtimoiy tabaqa vakillarining tili) kabi variantlar mavjud. Ba'zan RP egasi o'zining ijtimoiy holatini oshkor qilishdan qochib, o;z nutqida Kokniga xos bo'lgan tubandagi fonetik xususiyatlarni ishlatadi: a) "t" tushiraladi: wha{?}~ what (nima), li(?)le - little (kichkina)\ vokallashadi: hi(w)- hill (tyepalik), mi(w)k-milk.

Gender variativlik Sotsiolingvistikada ijtimoiy variativlikdan tashqari, gender variativligini ham kuzatish mumkin. Masalan, yapon tilida erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Erkakning "ayolcha" gapirishi yoki aksincha, ayolning "erkakcha" gapirishi jiddiy kulgili holatlarni keltirib chiqaradi. Yapon tilidagi erkak va ayol variantlarining farqi til tizimining barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Fonemalar va ularning moslashuvidagina bir xillik mavjud bo'lib, ularning urg'usida farqlanish ko'zga tashlana boshlaydi. Ayniqsa, grammatika va leksika sathida ikki variantning bir-biridan ajralishi ko'proq kuzatiladi. Masalan, 1-shaxs va 2-shaxs kishilik olmoshiari misolida (3-shaxsda alohida farq kuzatilmaydi), faqat 1-shaxsning eng takallufli vatakusi shakli erkak va ayollar tomonidan birday qo'llaniladi. Erkaklar, asosan, boku (odatda), ore (betakalluf) va vasi (betakalluf, hozir eskirgan); ayollar - atasi (betakalluf) va atakusi (takallufli, eskirib borayotgan) kishilik olmoshlarini ishlatishadi. Vatasi olmoshi erkaklar tomonidan ham, ayollar tomonidan ham qo'llaniladi, biroq ayollar uchun standart, erkaklar uchun takallufli (vatakusi ga nisbatan), shuningdek, katta yoshdagilarga xos olmosh sanaladi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, lingvistik variativlik tilning tabiiy va ajralmas xususiyati bo'lib, uning ijtimoiy mohiyatini ochib berishda muhim nazariy ahamiyatga ega. Variativlik tilning barcha sathlarida namoyon bo'lib, nutq egalari tomonidan turli kommunikativ vaziyatlarda ongli yoki ongsiz ravishda tanlanadi. Interspiker va intraspiker variativlik, lingvistik va sotsiolingvistik variativlik hamda dialektal farqlanish tilning dinamik rivojlanish jarayonini ko'rsatadi. Shuningdek, lingvistik o'zgaruvchi tushunchasi variativlik va til o'zgarishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Demak, variativlikni o'rganish tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Trask, R. L. Key Concepts in Language and Linguistics. — London: Routledge, 2007.
2. Trask, R. L. Key Concepts in Language and Linguistics. — London: Routledge, 1999 / 2005.
3. Reppen, R., Fitzmaurice, S., & Biber, D. Using Corpora to Explore Linguistic Variation. — Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2002.
4. Mougeon, R., Nadasdi, T., & Rehner, K. The Sociolinguistic Competence of Immersion Students. — Bristol: Multilingual Matters, 2010.
5. Ellis, D. G. From Language to Communication. — London: Routledge, 1999.



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA
INNOVATSION G'OYALAR**



6. Kiesling, S. F. Linguistic Variation and Change. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2011.

